

O'ZBEKISTONDA LEGALTECH SOHASIDA MILLIY RAQAMLI YURIDIK XIZMATLAR PLATFORMASI

Xasanboyeva Sevinch Azizbek qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

Jinoiy odil sudlov fakulteti 1-kurs V potok 1-guruh talabasi.

sevinchxasanboyeva2006@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14739229>

Annotatsiya. Ushbu maqola bugungi kunda O'zbekiston LegalTech sohasida yuridik xizmatlar platformasi mavzusining tahlili keng shaklda yoritilgan hamda unda hozir foydalanilayotgan platformalarimiz haqida ma'lumotlar keltirildi. Shu bilan birga yagona huquqiy xizmatlar platformasini yaratish bo'yicha tadqiqot o'tkazildi. Xorijiy mamlakatlarning ushbu sohadagi tajribalari izchil o'rganib tahlil qilindi. Milliy hamda chet el huquqiy adabiyotlari ham o'rganib tahlil qilindi. Mavjud muammolar ko'rib chiqilib yechim topishga harakat qilindi. Shuningdek, ushbu mavzu yuzasidan muhokamalar hamda natijalar ham yoritib o'tildi. So'ngida qonunchilikka beriladigan takliflarga ham to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: LegalTech, raqamli yuridik xizmatlar platformasi, xorijiy huquqiy adabiyotlar, milliy huquqiy adabiyotlar, chet el va milliy qonunchilik.

NATIONAL DIGITAL LEGAL SERVICES PLATFORM IN THE LEGALTECH SECTOR IN UZBEKISTAN

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the topic of the legal services platform in the LegalTech sector of Uzbekistan today, and provides information about the platforms currently used. At the same time, a study was conducted to create a single legal services platform. The experience of foreign countries in this area was consistently studied and analyzed. National and foreign legal literature was also studied and analyzed. Existing problems were considered and efforts were made to find solutions. Discussions and results on this topic were also covered. Finally, proposals for legislation were also touched upon.

Keywords: LegalTech, digital legal services platform, foreign legal literature, national legal literature, foreign and national legislation.

НАЦИОНАЛЬНАЯ ПЛАТФОРМА ЦИФРОВЫХ ЮРИДИЧЕСКИХ УСЛУГ В СФЕРЕ LEGALTECH В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация. В данной статье в широкой форме рассмотрен анализ темы платформ юридических услуг в сфере LegalTech Узбекистана и представлена информация

об используемых нами в настоящее время платформах. Одновременно проводилось исследование по созданию единой платформы юридических услуг. Последовательно изучался и анализировался опыт зарубежных стран в этой сфере. Также была изучена и проанализирована отечественная и зарубежная юридическая литература, рассмотрены существующие проблемы и предприняты усилия по поиску решения. Также освещены дискуссии и результаты, связанные с данной темой. В завершение также были обсуждены предложения по законодательству.

Ключевые слова: LegalTech, платформа цифровых юридических услуг, зарубежная юридическая литература, национальная юридическая литература, зарубежное и национальное законодательство.

KIRISH

O'zbekistonda LegalTech sohasida milliy raqamli yuridik xizmatlar platformasi huquqiy xizmat ko'rsatishning muhim tarkibiy bo'lagi hisoblanadi. Bu jarayon nafaqat huquqiy xizmatlar ko'rsatish natijadorligini keskin oshiradi, balki fuqarolar tadbirkorlarning odil sudlovga bo'lgan konstitutsiyaviy huquqlarini ta'minlashda ahamiyatli o'rin egallaydi. Shu jumladan takidlash joizki, O'zbekiston Respublikasida ham oxirgi yillarda "Raqamli O'zbekiston- 2030" strategiyasi ko'lamida islohotlar amalga oshirilmoqda, shu vaqtgacha bir qancha foydali yuridik xizmatlar platformalari mavjudligiga qaramay, biroq yuridik xizmatlar sohasida yagona milliy raqamli platforma mavjud emas. Mamlakatimizda yuridik xizmatlar bozorining hozirgi holati quyidagi muammoli vaziyatlarni ko'rsatmoqda:

1. Huquqiy xizmatlar sifatini baholash tizimining yo'qligi hamda

2. Huquqiy ma'lumotlarning tarqoqligi, yuridik hujjatlarni avtomatlashtirish darajasining sust ekanligini keltirishimiz mumkin.

Ushbu mavzu yuzasidan bir qancha huquqiy adabiyotlar va tadqiqotlarga to'xtaladigan bo'lsak, Yakubov S.ning "O'zbekistonda yuridik xizmatlarni raqamlashtirish: huquqiy asoslar va istiqbollar"(2023) ilmiy maqolasi, Karimov B."Elektron huquqiy xizmatlar platformalarini rivojlantirish masalalari" TDYU axborotnomasi, (2022) shuningdek, Xodjayev B.ning "O'zbekistonda elektron huquqiy xizmatlar platformasi" nomli monografiyasida shu jumladan xorijiy adabiyotlardan Richard Susskind "Tomorrow's Lawyers: An Introduction to Your Future"(2023) Michele DeStefano "Legal Upheaval: A Guide to Creativity, Collaboration, and Innovation in Law"(2022) bu masalaning huquqiy jihatlariga e'tibor qaratgan.

Biroq, hozirgi kunga qadar O'zbekistonda yagona milliy raqamli yuridik xizmatlar platformasini yaratish borasida uning huquqiy oqibatlari yetarlicha o'rganilmagan deb ayta olish mumkin. Ushbu tadqiqotni maqsadi O'zbekistonda mavjud milliy raqamli yuridik xizmatlar platformalarini ko'rib chiqqan holda izchil tahlil qilish hamda yagona raqamli yuridik xizmatlar platformasini yaratish yo'llarini ko'rib chiqishdir. Maqsadga erishish uchun hal qilinadigan aniq vazifalar shulardan iborat:

1. Raqamli yuridik xizmat ko'rsatishning mavjud holatini tahlil qilish
2. Mavjud qonunchilikni xalqaro standartlar bilan solishtirgan holda o'rganib chiqish.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqot LegalTech sohasida milliy raqamli yuridik xizmatlar platformasini yaratish metodlarini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqotda ham miqdoriy, ham sifat ma'lumotlarini to'plash va tahlil qilish uchun aralash metodlar yondashuvidan foydalanildi.

Bu yondashuv orqali:

LegalTech sohasidagi muammolar yanada kengroq o'rganildi, bugungi kunda platformaga bo'lgan ehtiyoj darajasi aniqlandi, kerakli xalqaro tajribalar sifat borasida tahlil qilib o'rganildi.

Maqsad: O'zbekistonning LegalTech sohasidamilliy raqamli yuridik xizmatlar platformasini mukammal versiyasini yaratish va uni xorijiy tajribalardan foydalangan holda takomillashtirib amaliyotga tadbiq qilish.

Vazifalar:

- LegalTech sohasida hozirda mavjud bo'lgan va foydalanilayotgan yuridik xizmatlar platformalarini vazifalaridan kelib chiqib tahlil qilish hamda ularga tayangan holda yangi loyhaning tarkibini yaratish.
- Milliy hamda xorijiy tajribalardan kelib chiqib, ularni amaliyotda qo'llash choralarini ko'rish.
- Bundan kelib chiqib ba'zi qonun hujjatlarini joriy etish va mavjudlariga zarur bo'lsa qo'shimchalar kiritish.

Bugungi kunda O'zbekistonda mavjud raqamli yuridik xizmatlar platformalari sifatida quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

- Lex.uz
- Regulation.gov.uz
- Norma.uz

- E-qaror
- Advice.uz
- Yurxizmat.uz
- Public.sud.uz
- My.sud.uz
- AI.soliq

Lex.uz- huquq va huquqiy axborotlashtirish sohasidagi davlatning asosiy huquqiy axborot resursi bo'lib, O'zbekiston respublikasida qabul qilingan barcha qonun hujjatlarini e'lon qiladigan yagona rasmiy manbadir¹ Regulation.uz-normativ-huquqiy hujjat loyhalari muhokama qilinadi.

Norma.uz- qabul qilingan noramativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyhalari tahlili, tadbirkorlik, buxgalteriya, yurisprudensiya va boshqa sohalar bo'yicha mualliflik materiallari, elektron mahsulotlar hamda seminarlar anonslari har kuni chop etiladi. E-qaror- 2021-yil 1-iyuldan "e-qaror" elektron tizimi orqali ishlab chiqilgan hokim qarorlariga avtomatik tarzda raqam beriladi. Tizimda e'lon qilinadi.

Advice.uz- huquqiy axborot portalida jismoniy va oilaviy tadbirkorlik, ijtimoiy masalalar, sog'liqni saqlash kabi huquqiy masalalar, shu jumladan, fuqorolarni qiziqtirgan masalalar bo'yicha ma'lumot beradi.

Yurxizmat.uz- hozir O'zbekiston Adliya vazirligi qoshidagi "Adolat" milliy huquqiy axborot markazi tomonidan Legal Tech tizimi ishga tushirilgan. Tizimda 1226ta hujjat va shartnoma mavjud. Public.sud.uz-sud hokimyatining rasmiy portali va O'zbekistonda sud tizimi ochiq va shaffof qilish, fuqarolarning sud tizimiga bo'lgan ishonchini oshirish maqsadida yaratilgan.

My.sud.uz- bu fuqarolar va tashkilotlar uchun sud xizmatlaridan masofadan foydalanish imkonini beruvchi yagona elektron platforma. AI.soliq.uz- soliq qo'mitasi sun'iy intellektga asoslangan DavrOn nomli virtual yordamchi ishga tushirdi. U soliq to'lovchilarga tegishli ma'lumotlar va soliqqa tortish masalalar berishi mumkin.²

Sanab o'tilgan axborot tizimlarining yaratilishi foydalanuvchilar ortiqcha sarson bo'lishining oldini olishga, ularning vaqti va mablag'ini tejashga, shuningdek, aholining huquqiy bilimlarini oshirishga imkoniyat yaratib beradi.

¹ Tojiyev F. O'zbekistonda LegalTech sohasining ahamiyati//Huquq va burch-2023.

² Tojiyev F. O'zbekistonda LegalTech sohasining ahamiyati//Huquq va burch-2023.

Xorijiy tajribalarga misollar

Buyuk Britaniya (Rocket Lawyer)

- 1.Oylik obuna asosida ishlaydi.
- 2.Yuridik hujjatlarni yaratish va saqlashni bajaradi.
- 3.Video-konferensiya orqali yuristlar bilan aloqaga chiqish.
- 4.Hujjatlarni elektron shaklda imzolash xizmati ham mavjud.
- 5.Mobil ilova yordamida xizmatlardan erkin foydalanish.

Niderlandiya (Law&More)

- 1.Huquqiy xizmatlarni standartlashtirish.
- 2.Ko'plab sohalarda huquqshunoslarni birlashtirgan platforma
- 3.Avtomatik narx qo'yish tizimi
- 4.Haqiqiy vaqt rejimida muloqot qilish.

Singapur (Themis)

- 1.Sun'iy intellekt vositalaridan yuqori darajada foydalanish.
- 2.Yuridik hujjatlarni tahlilni keng tahlil qilish.
- 3.Risk tahlili
- 4.Ko'p bosqichli tekshiruv tizimi mavjud.

NATIJALAR

Tadqiqot davomida quyidagi asosiy natijalar aniqlandi: mamlakatda yuridik xizmatlarni raqamalashtirish darajalari, bugungi kunda yuridik xizmatlarning 35% ni raqamli ko'rinishda taqdim etmoqda.

O'zbekistonda legal tech xizmatlarining joriy holati tahlili

Tadqiqot davomida O'zbekistonda legal tech sohasining hozirgi holati o'rganildi.

Natijalar quyidagilarni ko'rsatdi:mavjud raqamli yuridik xizmatlar infratuzilmasi,E-sud tizimi orqali 2023-yilda 1.2 million fuqarolik ishlari ko'rib chiqilgan, notarial xizmatlarning 65% elektron shaklda amalga oshirilmoqda, Legal tech startaplar soni 2022-yilga nisbatan 40% o'sgan, yuridik maslahat beruvchi chatbotlar 15 ta mavjud.

Asosiy muammolar va kamchiliklar: turli davlat organlarining yuridik ma'lumotlar bazalari o'rtasida integratsiya mavjud emas, yuridik xizmatlarning 70% hamon an'anaviy usulda ko'rsatilmoqda, Legal tech sohasida malakali kadrlar yetishmovchiligi (talab 2000 ta, taklif 500 ta mutaxassis), xavfsizlik va ma'lumotlar himoyasi bo'yicha yagona standartlar ishlab chiqilmagan.

Milliy va xorijiy qonunchilikdagi aksi

O‘zbekiston Respublikasi prezidentining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni (PF-6079,2020)ga binoan ushbu sohaning rivojlanishi sabab bo‘luvchi keng miqyosdagi islohotlar amalga oshirilagan. Xususan, elektron hukumat tizimini takomillashtirish, dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalarining mahalliy bozorini yanada rivojlantirish, respublikaning barcha hududlarida IT-parklarni tashkil etish, shuningdek, sohani malakali kadrlar bilan ta‘minlashni ko‘zda tutuvchi 220 dan ortiq ustuvor loyihalarni amalga oshirish boshlangan.³ “Elektron raqamli imzo to‘g‘risida”gi Qonunda elektron hujjatlarda raqamli imzodan foydalanish tartibini aniq belgilangan⁴. “Elektron hukumat to‘g‘risida”gi qonunda esa elektron davlat xizmat ko‘rsatish tartibi, yagona interaktiv davlat xizmatlari portali faoliyatini tartibga soladi.⁵

Xorijiy qonunchilik hujjatlariga yuzlanadigan bo‘sak, Singapurda “Legal Profession (Law Practice Entities) Rules” - yuridik xizmatlarni raqamlashtirish va texnologik yechimlardan foydalanishni tartibga soladi hamda onlayn yuridik xizmat ko‘rsatish standartlarini belgilaydi. Shuningdek Buyuk Britaniyada esa “Legal Services Act 2007” - yuridik xizmatlar bozorini liberallashtirish va innovatsiyalarni joriy etishga qaratilgan. “Courts and Legal Services Act 1990” - elektron sud tizimini rivojlantirish asoslarini belgilaydi.

Amerika Qo‘shma Shtatlarida esa “Electronic Signatures in Global and National Commerce Act (ESIGN)” - elektron imzolar va hujjatlarning yuridik kuchini tartibga soladi. Har bir shtat o‘zining onlayn yuridik xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha qonunlariga ega.

Evropa Ittifoqi: “eIDAS Regulation” (910/2014) - elektron identifikatsiya va tranzaksiyalar xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha yagona standartlarni o‘rnatadi.

Janubiy Koreya: “Framework Act on Informatization Promotion” davlat xizmatlarini raqamlashtirish va elektron hukumatni rivojlantirish asoslarini belgilaydi. “Digital Signature Act” - elektron imzolardan foydalanish tartibini belgilaydi.

Milliy huquqiy hamda chet el huquqiy adabiyotlari

O‘zbek ilmiy maqolalaridan Yakubov S. “O‘zbekistonda yuridik xizmatlarni raqamlashtirish: huquqiy asoslar va istiqbollari” (Huquq va burch, 2023)ni, Karimov B. “Elektron huquqiy xizmatlar platformalarini rivojlantirish masalalari” (TDYU axborotnomasi, 2022) ni

³ [“RAQAMLI O‘ZBEKISTON—2030” STRATEGIYASINI TASDIQLASH VA UNI SAMARALI AMALGA OSHIRISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA](#)

⁴ [O‘RQ-793-coh 12.10.2022. Elektron raqamli imzo to‘g‘risida](#)

⁵ [O‘RQ-395-coh 09.12.2015. Elektron hukumat to‘g‘risida](#)

keltirib o'tish maqsadga muvofiqdir. Shu jumladan Toshkent davlat yuridik universiteti izlanuvchisi Furqat Tojiyevning "O'zbekistonda "LegalTech"ni qo'nishning ahamiyati" nomli ilmiy maqolasini ushbu mavzuda ahamiyatli jihatlari juda ko'p. Bu borada Abdiraimov A.ning "Elektron hukumat va xizmatlar sohasini raqamalashtirish xususiyatlari" ilmiy maqolasida davlat organlarining samaradorlik koeffitsientini oshirish, elektron hukumatni rivojlantirish masalalari hamda hududlarni raqamlashtirish, davlat axborot tizimlari va elektron xizmatlarni joriy etish ochib berish bo'yicha takliflar va tavsiyalar keltirilgan. Shu jumladan, xalq ta'limi, davlat xizmatlari, sud, moliya va bank tizimida raqamlashtirishga doir nazariy va qarashlar tahlil etilib, uning elementlari to'liq yoritib berilgan.

Xorijiy huquqiy adabiyotlarga ingliz tilidagi kitoblarni Richard Susskind "Tomorrow's Lawyers: An Introduction to Your Future" (2023), Michele DeStefano "Legal Upheaval: A Guide to Creativity, Collaboration, and Innovation in Law" (2022) va Mark Cohenning "Legal Mosaic: Essays on Legal Technology and Innovation" (2023) kabi adabiyotlarni ushbu mavzuga doir ahamiyatli ma'lumotlar keltirilgan deb ta'kidlashimiz joiz.

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari ko'rsatishicha, O'zbekistonda milliy raqamli yuridik platforma yaratish quyidagi ijobiy o'zgarishlarga olib keladi:

1. Iqtisodiy samara: yuridik xizmatlar bozorining hajmi 2025-yilga kelib 3 barobarga o'sishi, yangi ish o'rinlari yaratilishi (taxminan 5000 ta), yuridik xizmatlar eksporti imkoniyati paydo bo'lishi.

2. Ijtimoiy samara: aholining barcha qatlamlari uchun yuridik xizmatlar mavjudligining oshishi, huquqiy savodxonlikning yuksalishi, korrupsiya xavfining kamayishi.

3. Texnologik samara: IT-industriyaning rivojlanishiga turtki, yuridik soha raqamlashtirish darajasining oshishi, innovatsion yechimlarning joriy etilishi.

Biroq, platformani muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun quyidagi jihatlarga alohida e'tibor qaratish lozim: qonunchilik bazasini takomillashtirish, xavfsizlik va shaxsiy ma'lumotlar himoyasini ta'minlash, malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish.

Xalqaro tajribani inobatga olish Milliy raqamli yuridik xizmatlar platformasini rivojlantirish uchun quyidagi qonunchilik tavsiyalari ishlab chiqildi:

1. "Elektron yuridik xizmatlar to'g'risida" qonun qabul qilish: Platformaning huquqiy maqomini belgilash, xizmat ko'rsatuvchi sub'ektlarning huquq va majburiyatlarini aniqlash.

belgilash, elektron shartnomalar va hujjatlarning yuridik kuchini ta'minlash, ma'lumotlar xavfsizligi va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish talablarini o'rnatish.

2. "Elektron advokatlik faoliyati to'g'risida"gi nizomni ishlab chiqish: Masofaviy yuridik maslahatlar berish tartibini belgilash, online format orqali mijozlar bilan ishlash mexanizmlarini yaratish, elektron hujjat aylanishi standartlarini joriy etish

3." Advokatlik faoliyati to'g'risida"gi qonunga o'zgartishlar kiritish: Online yuridik xizmatlarni ko'rsatish imkoniyatini nazarda tutish, masofaviy ish shakllarini qonuniylashtirish, elektron dalillar va hujjatlardan foydalanish tartibini belgilash

4." Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi qonunga qo'shimchalar kiritish: Davlat organlari bilan elektron muloqot qilish tartibini belgilash, elektron hujjatlarni qabul qilish va ko'rib chiqish muddatlarini o'rnatish

5. Fuqarolik protsessual kodeksiga o'zgartishlar kiritish: Online sud majlislarini o'tkazish tartibini belgilash, elektron dalillarni taqdim etish va baholash qoidalarini ishlab chiqish.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, O'zbekistonda milliy raqamli yuridik xizmatlar platformasini yaratish nafaqat huquqiy xizmatlar bozorini modernizatsiya qilishga, balki butun huquqiy tizimni raqamlashtirish jarayonini jadallashtirish, aholining huquqiy himoyasini kuchaytirish va mamlakatning raqamli iqtisodiyotga o'tish jarayonini tezlashtirishga xizmat qiladi. Kelajakda ushbu yo'nalishda tadqiqotlarni davom ettirish, xususan, sun'iy intellekt texnologiyalarining yuridik sohadagi amaliy qo'llanilishi, ma'lumotlar xavfsizligi va platformaning huquqiy asoslarini takomillashtirish masalalarini chuqurroq o'rganish tavsiya etiladi.

T/R	Muammolar	Taklif va yechimlar
1	Yuridik xizmatlarni raqamlashtirish sohasi tartibga soluvchi qonun ishlab chiqilmagani	"Elektron yuridik xizmatlar to'g'risida"gi qonunni ishlab chiqish.
2	Fuqarolik kodeksida elektron shartnoma tuzish shartlari kiritilmagani	FKning 27-bobiga 364-moddaga qo'shimcha qilib elektron shartnoma tuzish shartlari va tartibini kiritish.

3	Yagona milliy raqamli yuridik xizmatlar platformasi yaratilmaganligi	Platformani yaratish va joriy etish bo'yicha "Yo'l xaritasi"ni ishlab chiqish.
---	--	--

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasining "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida"gi Qonuni. 2004 yil 29 aprel, №611-II.
2. O'zbekiston Respublikasining "Elektron tijorat to'g'risida"gi Qonuni. 2015 yil 22 may, №385.
3. Richard Susskind. (2019). Online Courts and the Future of Justice. Oxford University Press. ISBN: 978-0198838364
4. Katsh, E., & Rabinovich-Einy, O. (2017). Digital Justice: Technology and the Internet of Disputes. Oxford University Press. ISBN: 978-0190675631
5. Barton, B. H. (2020). "Digital Age Legal Practice: Technology and the Standard of Care." Oklahoma Law Review, 73(1), 101-148.
6. Xalqaro tajriba: Singapur "Tech-ready" yuridik xizmatlar dasturi (2019-2023).
7. European Commission. (2020). "2021-2027 Digital Europe Programme."
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi Farmoni. 2020 yil 5 oktyabr, №PF-6079.
9. Ashley, K. D. (2017). Artificial Intelligence and Legal Analytics: New Tools for Law Practice in the Digital Age. Cambridge University Press. ISBN: 978-1316622810
10. Smith, R. (2019). "Digital Delivery of Legal Services to People on Low Incomes." The Legal Education Foundation Research Report.